



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Gulbahor Rahimova¹, Norbekova S.²

¹ O'zbekiston-Finlandiya instituti dotsenti
² talaba

ANVAR OBIDJON SHE'RIYATIDAGI YUMORISTIK MOTIVLARNING BOLALAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh avlod ma'naviyatini shakllantirishda bolalar adabiyotining o'rnini haqida mulohaza yuritilgan. Xususan, Anvar Obidjonning bolalar xarakteridagi salbiy odatlarni hazil-mutoyiva, samimiy kulgu asosida tanqid qilinishi aks ettirilgan she'rlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tarbiya, ta'lim, ma'rifat, xarakter, hazil-mutoyiva, kulgu.

Bolalar dunyosi o'zgacha beg'ubor, sof, samimiy va pok olamdir. Ularning nozik olamiga kira olish, jajji qalblarni o'ziga jalb qila oladigan qandaydir asar yaratish ham mushkul va mas'uliyatli ishdir. Bolalarcha fikrlay oladigan, borliqqa ularning ko'zlari bilan qarab zavq ola biladigan insongina ular uchun she'r, ertak, hikoya yarata olishi mumkin.

Bolalar fantaziyasi shunchalik boyki, ular oppoq bulutlarga qarab har xil hayvon yoki shakllarni, izma-iz yurib ketayotgan chumolilarga qarab uzoq yo'lda ketayotgan poyezdlarni tasavvur qila olishadi. Qanday ajoyib-a, olamning har bir hilqatidan go'zallik yarata olish. Ana shu mo'jizalarni she'rda aks ettira olish ham katta mahoratni talab etadi. She'r dunyosi o'zgacha olam, chinakam shoirgina o'z misralaridan qayiq yasab, she'r dunyosida suza oladi. Bolalar she'riyati dengizida suzish esa yanada mahorat talab etadi. Buning uchun bola bo'lish, bolalar dunyosiga kirish va borliqqa bola nigohida boqa olish kerak. Har bir bola esini tanibdiki, oilada, bog'chada, maktabda she'rlar yod ola boshlaydi. Ular jajji tillarida Ona vatanni, ota-onasini, maktabini ulug'lovchi she'rlar aytib ulg'ayi-shadi. Shunday ekan, ular uchun yaratilgan she'r sodda, ravon, tushunarli va satrlari qiziqarliligi bilan bolalarni o'ziga jalb qila oladigan bo'lishi lozim.

O‘zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon o‘zining badiiy obrazlari va qiziqarli asarlari bilan bolalar qalbiga kirishni uddalagan ijodkor sanaladi. Bolalar adabiyoti deganimizda, u kishini ko‘z oldimizga keltirmaslikning hech iloji yo‘q.

Hazil-mutoyiba har doim insonlarni kayfiyatini ko‘tarishga, ularning yuzlariga tabbasum yugurishiga xizmat qilib kelgan. Anvar Obidjon deyarli har bir asarida kulgili jummalarni o‘z o‘rni bilan qo‘llay olgan shoir sanaladi. U qaysi janrda, qaysi mavzuda qalam tebratmasin bolalarning “kulguga o‘ch” va “tabassumga shaydo” ekanliklarini unutmaydi. [5.233] Uning “Husanning po‘pisalari” deb nomlanuvchi she‘rining har bir jumlasini kulgili misralar bilan sug‘orilgan.

Agar meni ursang Hasan,

Yuragimda o‘ch yig‘aman.

Sezdirmay saryog‘ingni yeb,

Mushtlashgani kuch yig‘aman. [1. 71]

Aka-uka egizaklar birga o‘shib unishadi. Tengdosh bolalarning ko‘pchi-ligida ayrim mojaralar bo‘lganidek, ushbu she‘r ham Husanning Hasandan noroziligi va unga qilgan po‘pisasi bilan boshlanadi. Agar akasi uni uradigan bo‘lsa, aslo-aslo tinch qo‘ymasligini, uning rizqini bildirmasdan yeb olib, mushtlashgani kuch yig‘ajagini, shu asnodan undan o‘zicha “o‘ch” olishini bayon etadi. Dasturxonidagi saryog‘ tilga olinayotganidan o‘qiguvchi darrov sezishi mumkinki, pahlavonlar o‘rtasidagi mojaro nonushta vaqtida boshlangan.

Anqayibroq turganingda

Sutchoyningni ichvormayin.

Bitta saqich qarz beruvding,

Shu qarzimdan kechvormayin. [1.71]

Bolajonlar shirinlikka sutli narsalarga o‘ch bo‘lishadi. Keyingi misrada uni sutchoyidan mahrum bo‘lib qolishligi haqida ogohlantirilyapti. Shoir kitobxon e‘tiborini bolalar o‘rtasidagi oldi-berdi masalasiga qaratadi. Mittivoylarda pul, o‘yinchoq va boshqa buyumlardan tortib, arzimagan saqichni berishgacha qarz daftaridan joy olib kelishi, ukasi qarzga deb olgan saqichini qaytarib bermasdan, kechib yuborishi Hasan uchun “buyuk yo‘qotish” bo‘lsa ajab emas. Chunki ushbu hotamtoylikning boisi sutchoyning evaziga-da. Keying bandeda Husanning akasini boshqa nasibalariga ham “ko‘z olaytirishi” tasviri berilgan:

Katta-katta qandni tanlab,

Ko‘nglingni sal g‘ashlab qo‘ymay

O‘zimmikin yeb sening ham,

Somsangni shart tishlab qo‘ymay. [2. 37]

Yuqorida aytilganidek, shirinlikka o‘ch bo‘lgan bolajonlarning boshqa-lardan kamroq shirinlik yeyishi ular uchun katta “fojea” sanaladi. Axir, qandni kattasi kimga ham yoqmaydi deysiz. Hatto, akasining somsasini ham bir tishlab qo‘yishi, bu rizqqa ham ega chiqishi, albatta, Hasanning jig‘iga tegishning osongina yo‘li-da. Bu bilan qanoatlanmagan uka, yana akasini chuv tushurishni istaydi. Unga ko‘chalardayam kun bermasdan

chaqayotgan pistasini tortib olib qochib ketishni, bu ham yetmasa, qo‘lidagi xo‘rozqandini yalab qochib, arqasidan hakillatib quvlatishni, mazza qilib yugurishni reja qiladi:

Ko‘chadayam kun bermayman,

Pista chaqsang, talab qochib.

Hakillatib quvlataman,

Xo‘rozqanding yalab qochib. [2. 37]

Husanning akasiga “kun bermas”ligi, unga tinmay zo‘ravonlik qilishi, natijada, Hasanni “Og‘zidagi oshini boy berish”ini [3.28] chinakam mushkul vaziyatga solib qo‘yadi. Yana bu ahvol ko‘chada yuz bersa, undan yomoni yo‘q. Axir. boshqa bolalar ukasi uni kalaka qilyapti, deb uning ustidan kulishadiku. Shu vaziyatdagi Hasanning holatini so‘z bilan ta’riflash qiyin, albatta.

Shoir so‘zlarini shunday tanlab-tanlab misralarga marjondek terganki, she’rni o‘qiyotgan kitobxon ukasini bir marotobagina urgani uchun shuncha tashvish boshiga yog‘dirilayotgan Hasanga qo‘shilib qayg‘uga tushadi, hatto beixtiyor unga qanday yordam berish chorasini ham qidirishga harakat qiladi.

To‘yda to‘ymay qob ketmagin,

Oshingdan bir cho‘qib o‘tsam.

Zo‘rg‘a topgan nisholdangga,

Besh panjamni tiqib o‘tsam. [4. 263]

To‘ydagi vaziyatni hamma biladi, barcha shoshgan, mehmonlarga xizmat qilish bilan band. Yosh bolalarga “oyoq ostida o‘ralashma” degan tanbehlar ham ko‘p beriladi. Shoir she’r davomida ukaning yana bir “qilmishi”ni ko‘rsatish maqsadida to‘ydagi holatni gavdalantiradi. Husan bolalarga atab suzilgan oshdan akasining haqini yeb ketyapti, ko‘p harakatlar qilib erishgan nisholdasini ham paqqos tushirib ketyapti, bu zo‘ravonliklar Hasanning tepa sochini tikka qilishi turgan gap. U kattalardan nisholda so‘rab olish uchun yana qancha ter to‘kishi kerak, axir.

Shoxga chiqib o‘rik qoqsang,

Men tagida turvolsamchi?

Tushguningcha, mevalarni-

Xappa-xappa urvolsam-chi? [1.72]

Qishloq va qishloq yaqinida, umuman, mevali daraxt bor joyda tug‘ilib o‘sgan har bir bola borki, daraxtga chiqqan, meva qoqqan, tabiatning shirin ne‘matlaridan bahramand bo‘lmagan bo‘lsa. Bolalar uchun mevani daraxtga chiqib, shoxlarida o‘tirib yeyishning lazzatli boshqacha. Lekin shu lazzat uchun ancha-muncha peshona teri to‘kish kerak bo‘ladi. Husanning esa daraxtga tirmashib chiqib, oyoq-qo‘llar tinalib o‘rik terishga xushi yo‘q, uning uchun eng osoni akasi qoqayotgan mevalarni tappa-tappa yeb olib, rohatlanish. Daraxtdagi o‘riklarni qoqib bo‘lib, pastga qaytib tushgan Hasanga bironta o‘rik qolmasligidan yomoni yo‘q. Husanning qilmishidan fig‘oni falakka chiqqan Hasanning holati, rang-ro‘yidan bilinib turibdi. Garchi bu holat she’rda bayon qilinmagan bo‘lsa-da, o‘quvchining tasavvurida jonlanadi. Bu albatta, shoir mahoratining, badiiy ifodasidir.

Bayram kuni sayildayam,

Boshingni ko‘p qotirgayman.

Shinnili muzqaymog‘ingga

Bexos qoshiq botirgayman.

Bolalar uchun bayram va sayillarning gashti boshqacha, hamma shod, o‘ynab kulgan, biroq Hasanga bu xursandchilik ta‘timaydi. Chunki uning shirindan-shin muzqaymog‘idan judo bo‘lib qolishi “xavfi” bor.

Bundan buyon inoqroq bo‘l,

Do‘qni chetga surib qo‘yib.

Keyin attang qilib yurma,

Meni bilmay urib qo‘yib.

Husanning akasini boshiga solmoqchi bo‘lgan ko‘rgiliklar hali tugamaydi, bundanda ko‘proq g‘alvalar yog‘dirishi ham mumkin. Agar Hasan bundan keyin ukasini urishdan tiyilsa, do‘q-po‘pisa qilmay, muloyimlik bilan gapirsa, unga chinakam akalik mehrini bersa, o‘rtalaridagi do‘stona munosabat tiklansagina bu qilmishlarini yig‘ishtirishini aytib, yaxshigina ogohlantiradi.

Bolajonlarning ichki dunyosi go‘yo shudgorlanib qo‘yilgan poyonsiz dalalarga o‘xshaydi. U yerga nima eksangiz, shu narsa unib chiqadi. Shunday ekan, ekilgan novdadan bog‘-bo‘ston yaratish va rohatlanish uchun, novdani to‘g‘ri tanlay olish kerak. Bu degani bolaning pok qalbini shunday nur bilan to‘ldiraylikki, uni zararli va bekorchi narsalarga vaqti ham, xohishi ham bo‘lmasin. Bu masalada ota-onaning, mahalla-ko‘yning, ustozlarning tarbiyasi hamda bolajonlarning o‘qiyotgan ertak, hikoya, she‘r kabi badiiy adabiyotning ta‘siri bo‘lishi mumkin.

Xullas, bolani qiziqtiradigan, o‘ziga jalb qila oladigan, uni majburlamasa-da kechasi bilan shu o‘qigani haqida o‘ylab chiqishga majbur qiladigan asarlar juda ko‘p. Anvar Obidjonning “Husanning po‘pisalari” deb nomlangan she‘ri xuddi shunday asarlar sirasiga kiradi. Undagi samimiy kulgu bilan boyitilgan ravon jumlar, bir-biriga ulanib ketgan qiziqarli voqealar beixtiyor kitobxonni o‘ziga jalb qiladi. She‘r mazmuniga singdirilgan zo‘ravonlik, birovga ozor berishning oqibatlari qarindoshlar o‘rtasida turli xil kelishmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkinligi masalasi aka-uka misolida butun bolajonlarga qarata aytilgan shoirning pand-nasihatidir. Bu she‘r o‘quvchilarni ma‘naviy jihatdan tarbiyalashga, ularning ongiga mehr-oqibat, do‘stona munosabat tuyg‘ularini singdirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anvar Obidjon. Tanlangan she‘rlar. –T.: “Sharq”,2006.
2. Anvar Obidjon She‘rlar. –T.: “Sharq”, 2008.
3. Anvar Obidjon Bezgakshamol-2 (hajviy hangomalar). –T.: “Ma‘naviyat”, 2007.
4. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. – T.: “Fan”, 2011.
5. Rahimova G. Ona tili va adabiyot (Bolalar adabiyoti). – Samarqand: SamDU, 2022.